

Tavhidga da'vat



19:00 / 28.04.2019 3822

11

Yusuf dedi: **“Bu ish menga Robbim o’rgatgan narsalardandir”**. Lekin Alloh ilmini hammaga ham beravermaydi. Albatta Alloh ilmini mushriklarga bermaydi. Nega Robbim bularni menga o’rgatganini bilasizlarmi? Chunki men shirk ahlining yo’llarini tark etdim. **“Va otalarim Ibrohim, Ishoq va Ya’qubning millatidininga ergashdim. Biz uchun Allohga biror narsani sherik qilish mumkin emas edi.”**

Yusuf dedi: “Bu tavhid faqat biz uchun emas, balki barcha insonlar uchundir.

“Bu bizga va odamlarga Alloh bergan fazl edi. Lekin odamlarning ko’plari shukr qilmaslar”. Shu yerda Yusuf o’rnidan turib, u ikkovlaridan: “Ular quruqlik xudosi, dengiz xudosi, rizq xudosi, yomg’ir xudosi, deyдилar. Biz,

“Alloh olamlarning robbi”, deymiz.

“Turli-tuman Robblar yaxshimi yoki yolg‘iz Qahhor sifatli Allohmi?”

Quruqlik xudosi, dengiz xudosi, rizq xudosi, yomg‘ir xudosi qayerda?

“Menga ko‘rsating-chi, ular yerdan nimani yaratdilar? Yoki osmonlarni (yaratishda) ishtiroklari bormi?”

Osmonlarga va yerga qaranglar, odamlarga qaranglar.

“Bu Allohning yaratganidir. Qani menga ko‘rsating-chi, Undan boshqalar nimani yaratdilar”.

Qanday qilib ularda quruqlik xudosi, dengiz xudosi, rizq xudosi, yomg‘ir xudosi bo‘ladi?

“O‘zingiz va ota-bobolaringiz nomlab olgan ismlar-ku?”.

Hukm Allohnik, mulk Allohnik, yer va barcha ishlar Allohnikidir.

“U faqat O‘zigagina ibodat qilishingizni amr etdi. Ana o‘sha to‘g‘ri dindir. Lekin odamlarning ko‘pi bilmaslar”.